

**JEK LONDON HIKOYALARIDA TABIAT VA INSON MUNOSABATI**

Talipova Aida Muratovna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada amerikalik yozuvchi Jek London hikoyalarida tabiat va inson munosabati qiyosiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Asosan, "Hayotga muhabbat", va "Uzoq o'lkalarda" kabi hikoyalar misolida insonning tabiat qarshisidagi ojizligi, yashash uchun kurashi, hayotga intilishi hamda tabiiy muhitning badiiy obraz sifatidagi o'rni ochib beriladi. London ijodida tabiat inson taqdirini belgilovchi kuch, inson ruhiyatini sinovdan o'tkazuvchi omil sifatida gavdalanadi.

**Kalit so'zlar:** Jek London, realizm, tabiat obrazi, inson va tabiat munosabati, hikoya poetikasi, hayot uchun kurash.

**Аннотация**

В данной статье анализируются отношения между человеком и природой в рассказах американского писателя Джека Лондона в сравнительно-теоретическом аспекте. В основном, на примере таких рассказов, как "Любовь к жизни", "В далёкой стране" раскрываются бессилие человека перед лицом природы, его борьба за выживание, стремление к жизни, а также роль природной среды как художественного образа. В творчестве Лондона природа предстает как сила, определяющая судьбу человека и испытывающая его духовный мир.

**Ключевые слова:** Джек Лондон, реализм, образ природы, отношения человека и природы, поэтика рассказа, борьба за жизнь.

**Abstract**

This article analyzes the relationship between man and nature in the stories of the American writer Jack London in a comparative-theoretical aspect. Basically, on the example of such stories as "Love of Life", "In a Far Country" the helplessness of man in the face of nature, his struggle for survival, the desire for life, as well as the role of the natural environment as an artistic image are revealed. In London's work, nature appears as a force that determines the fate of man and tests his spiritual world.

**Keywords:** Jack London, realism, image of nature, relations between man and nature, poetics of the story, struggle for life.

Amerika realizmi adabiyotida Jek London (1876–1916)ning ijodiy merosi alohida o‘ringa ega. U 'Shimol yozuvchisi' sifatida tanilgan bo‘lib, o‘z asarlarida insonning cheksiz tabiat bilan to‘qnashuvi, uning ruhiy-psixologik kechinmalari va hayotga bo‘lgan intilishini yuksak darajada badiiylashtira oldi. London hikoyalarida tabiat tasviri oddiy manzara emas, balki syujetni rivojlantiruvchi, qahramon xarakterini ochuvchi va falsafiy umumlashmalarni yuzaga chiqaruvchi markaziy omildir. Shu jihatdan, yozuvchining hikoyalarini tahlil qilish inson va tabiat munosabatlari muammosini kengroq ilmiy kontekstda yoritishga yordam beradi.

“Hayotga muhabbat” hikoyasida tabiat va inson o‘rtasidagi munosabat.

Jek Londonning eng mashhur hikoyalaridan biri — “Hayotga muhabbat” da inson va tabiat o‘rtasidagi kurash dramatik hamda falsafiy ohangda tasvirlangan. Hikoya syujeti oddiydek tuyulsa-da, unda insoniyatning hayotga bo‘lgan intilishi, yashash uchun kurashish istagi va tabiatning shafqatsiz hukmronligi yuksak badiiy vositalar orqali yoritiladi. Hikoyada asosiy qahramon sovuq tundra, ochlik va yolg‘izlik bilan yuzma-yuz qoladi. Tabiat unga qarshi chiqqandek ko‘rinadi: sovuq shamol, suvsizlik, quvib kelayotgan ayiqlar va ochlik — bularning barchasi insonning zaifligini ochib beradi. London tabiatni befarq, hissiz, o‘z qonunlariga ko‘ra yashaydigan kuch sifatida tasvirlaydi. Avvaliga qahramon zaif va ojizdek ko‘rinadi: u yiqilib qoladi, yana turadi, kuchsizlanadi, lekin baribir yurishda davom etadi. Bu jarayon orqali yozuvchi insondagi yashirin qudratni ochib beradi. Inson o‘z instinktiga, hayotga muhabbatiga tayanib, tabiatning shafqatsizligiga qarshi turadi. Hikoyaning markaziy falsafasi shundaki, inson hayotdan hech qachon ko‘ngil uzmaydi. Qahramonning eng so‘nggi kuchlarini ham safarbar qilishi, o‘lim bilan yuzma-yuz turganida ham yashash istagini yo‘qotmasligi tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatning falsafiy mohiyatini ochib beradi. Dastlab tabiat qahramonga qarshi dushman sifatida tasvirlansa-da, asar yakunida u insonning ichki kuchini ochib beruvchi sinov maydoni sifatida talqin qilinadi. Agar tabiat shafqatsiz bo‘lmaganida, insonning yashash uchun bo‘lgan intilishi ham shu qadar kuchli ko‘rinmagan bo‘lard. Demak, tabiat — bir tomondan dushman, ikkinchi tomondan insonni o‘zini anglashga olib boruvchi ustozdir.

Jek Londonning “Uzoq o‘lkalarda” hikoyasi ham yozuvchining boshqa shimoliy mavzudagi asarlari kabi inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘ziga xos tarzda yoritadi. Asarda tabiat nafaqat fon yoki voqealar kechadigan makon, balki qahramonlarning ruhiy holati, ichki dunyosi va hayot falsafasini ochib beruvchi falsafiy obraz sifatida gavdalanadi. Hikoyada shimoliy o‘lkalar qahramonlarni o‘zlarining kundalik odatlari, jamiyatdagi niqoblaridan xalos qiladi. Qattiq sovuq, ochlik va mashaqqat insonni o‘zining haqiqiy “men”i bilan yuzlashtiradi. Shu tariqa tabiat bir sinov maydoni sifatida inson ruhiyatini ochadi. Asarda



sharoitlar og'irlashgan sari ba'zi qahramonlar o'zlarini yo'qotib qo'yadi, xudbinlik, qo'rqqoqlik va ojizlik ularning tabiatini fosh etadi. Bu orqali London tabiatni insonni sinovdan o'tkazuvchi, ma'naviy qudratini o'lchaydigan falsafiy kuch sifatida talqin qiladi.

Shimoliy tundra insonning qayg'u va iztiroblariga befarqdir. U hamisha o'z qonunlari bilan yashaydi. Ammo aynan shu befarqlik qahramonlarni tabiatning qonunlariga moslashishga, uni tushunishga majbur qiladi. Bu jihatdan tabiat falsafiy obraz sifatida hayot qonunlarini, insoniyat va borliq o'rtasidagi muvozanatni anglatadi.

“Uzoq o'lkalarda” hikoyasida tabiat bilan insonning qarama-qarshiligi ko'rsatiladi. Tabiatni yengib bo'lmaydi, faqat unga moslashish mumkin. Shu o'rinda yozuvchi insonning mag'rurligi, kuchga ishonishi va yakunda tabiat oldida ojiz qolishini falsafiy ma'no sifatida ochib beradi.

Asarda tabiat ramzi orqali London shuni ko'rsatadiki, insonning haqiqiy qadri uning boyligi yoki jamiyatdagi mavqeida emas, balki qiyin sharoitlarda qanday yashashi, qanday inson bo'lib qolishidadir. Demak, tabiat – hayotning abadiy qonunlari va falsafiy adolatning timsolidir. London hikoyalarining o'ziga xosligi shundaki, unda tabiatga qarshi kurash jarayoni hayot falsafasi bilan uyg'unlashadi. Insonning tabiat qarshisida yengilishi ham, g'alaba qilishi ham falsafiy mazmunga ega: tabiat insonni kuchsizlantirsa-da, uning ruhiyatini charxlaydi, yashash uchun kurashga undaydi. Bu jihatdan London asarlari faqat adabiy hodisa emas, balki hayotning ma'naviy talqini sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jek London hikoyalarida tabiat oddiy dekorativ fon emas, balki voqealarni harakatlantiruvchi, inson xarakterini ochuvchi, uning ruhiy olamini sinovdan o'tkazuvchi markaziy obrazdir. London qahramonlari tabiatga qarshi emas, balki uning qoida va qonunlariga moslashish orqali omon qoladi. Tabiat ularning ba'zan dushmani, ba'zan ustoziga, ba'zan esa falsafiy timsolga aylanadi. Shu bois Jek London hikoyalarida tabiat va inson o'rtasidagi munosabat umuminsoniy mazmun kasb etib, realizm adabiyotining yirik badiiy yutug'iga aylangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. London J. Hayotga muhabbat. – Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 1985.
2. London J. Shimol odisseyasi. – Moskva: Hudozhestvennaya literatura, 1977.
3. London J. In a Far Country // The Complete Short Stories of Jack London. – Stanford University Press, 1993.
4. Wellek R., Warren A. Theory of Literature. – New York: Harcourt, 1956.
5. Ruth Franchere. Jack London: The Pursuit of a Dream. N. Y., 1962.